O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

о кадровых перестановках в администрации. Мы видим, что все цитаты трансформированы, но при этом легко узнаваемы для носителей русской ментальности. Эмоционально-образные ассоциации, возникающие в ходе прочтения трансформированного прецедентного текста, повышают выразительные возможности высказывания. Адресат безошибочно считывает информацию преобразованного текста, получая эстетическое и интеллектуальное удовлетворение [4].

Поскольку в большинстве случаев трансформированные ФЕ способствуют повышению экспрессии, их использование в публицистике как одном из самых эмоционально заряженных стилей представляется вполне оправданным. Структурно-семантические преобразования фразеологизма дают возможность приспособить смысл единицы к условиям определенного контекста, а также оживить стершийся образ, что ведет к повышению экспрессии, оценочности и выразительности.

Литература:

1. Добрыднева, Е.А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: дисс… д-ра филол. наук / .Е.А. Добрыднева. — Волгоград, 2000 г. — 453 с.

2. Телия, В.Н. Экспрессивность как проявление субъективного фактора в языке и ее прагматическая ориентация / В.Н. Телия // Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. — М., 1991. — С. 5-36

3. Susanna, v. Issues of journalism, pedagogy and linguistics.

4. Ваниева, Э. А., & Велиева, С. Р. (2023). Особенности учета национальных лингвометодических традиций при организации обучения иностранных студентов. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 435-438.

5. Raipovna, V. S., Akramovich, N. A., & Matlab, I. (2022). Semantic modules in the lexical system of the language. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 230-237.

6. Velieva, S. R. (2022). Semantic modules in the language's lexico-semantic system. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *3*(5), 112-

BADIIY ASARLARDA PEYZAJ VA INTERYER TASVIRINING QO‘LLANILISHI

f.f.f.d.(PhD) Sindorov Lutfulla Kurolovich,
Rustamova Dilbar Baxrom qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompozitsion vositalarga kiruvchi peyzaj va interyerning badiiy asarlarda qo‘llanishi, maqsad-vazifalari, farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, badiiy asar shakli, badiiy asar mazmuni, kompozitsiya, kompozitsion vositalar, peyzaj, interyer.

Asarlarda tabiat manzaralarini zamon va makon ko‘rinishini tasvirlashga alohida e’tibor berilishi bejiz emas. Negaki ular kishining kayfiyatiga ta’sir etib, uning harakat, faoliyatini muayyan yo‘nalishiga soladi. Adabiy asarni bir butun qilib ijod etishda, voqealarni o‘zaro bog‘lashda, qahramonlar harakat qiladigan sharoitni qayta hosil etishda yozuvchi turli-tuman yordamchi kompozitsion vositalardan foydalanadi. Kompozitsion vositalar badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishidir. Kompozitsion vositalar jumlasiga lirik chekinish, qistirma epizod, badiiy qoplash, peyzaj, portret, interyer va boshqalar kiradi.

Peyzaj – *(frans. paysage – mamlakat, joy)* degan ma’nolarni bildiradi. U asardagi badiiy voqelikning muhim unsuri, voqealar kechadigan ochiq makon tasviridir [8.70]. Tabiat tasviri aks etmagan mukammal badiiy asar bo‘lmaydi.

“Badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi. Peyzajning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati voqea kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur belgilanadi. Tabiat manzarasi orqali goh voqea sodir bo‘lgan faslni bildirishi, goh qahramonlarning kayfiyatini ochishga yordam berishi, goh asar voqealarini bir-biri bilan bog‘lash vazifasini o‘tashi mumkin. Bunga misol qilib, “Yo‘l bo‘yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho‘ltoq supurgiga o‘xshaydi. Havo, kuni bo‘yi zo‘r berib loaqal to‘rttagina qor tashlamaganidan xunob bo‘lganday, qovog‘i soliq. Shuning uchun hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. Qisqasi, kishining bahrini ochadigan hech narsa yo‘q” [5.107]. Abdulla Qahhorning “Karavot” hikoyasidagi bu peyzaj tasviri orqali yozuvchi G‘anijonning kayfiyati shu darajada ko‘tarinki ekanligini va bu ob-havo uni hech qanday tashvishga solmayotganligini aksincha shu havoda ham u gasht qilayotganligini tasvirlagan.

O‘.Genrining “Oktabr va iyun” hikoyasida “U bir muddat so‘zsiz qotdi, qorong‘ilik tomon mungli nigohlari bilan tikilib qoldi. Ko‘z oldiga uzoq-uzoqdan qorayib ko‘rinib turgan quyuq daraxtzorlar ortidagi keng, katta maydon ichida, ko‘m-ko‘k dengiz yonida o‘ynab yurgan ko‘k kiyimli bolalarning shodon chehralari ko‘rinib ketdi” [6.38]. Bu yerda ham katta maydon ichida, ko‘m-ko‘k dengiz yonida o‘ynab yurgan ko‘k kiyimli bolalarning shodon chehralari ko‘rinib ketishi orqali yozuvchi kapitanning qora kunlaridan charchab, beg‘ubor bolaligiga qaytishni istaganligini tasvirlagan.

“Tabiat manzaralarini yozuvchi o‘z qahramonlarining taqdiriga ta’sir etuvchi faktor sifatida ham tasvirlashi mumkin”. Yashar Kamolning “Ilonni o‘ldirsalar” asaridagi quyidagi peyzaj orqali “Jayxon daryosining suvi kamayib, kumushday tovlanib oqardi” [9]. Yozuvchi Xasanning umidsizligi, tushkun kayfiyatini suvning kamayishi bilan bog‘lagan.

Said Ahmad “Jimjitlik” romanida Tolibjonning bolalik davrini quyidagi peyzaj tasviri orqali o‘quvchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan “Tolibjon bolaligida o‘rtoqlari bilan suv kechib, orolchalarda qumga ko‘milib soatlab osmonga qarab yotardi. O‘sha paytlarda osmon juda ham ko‘m-ko‘k bo‘lardi. Oppoq bulutlar sut ko‘pigidek bo‘lib qishloq ustidan shoshilmay tog‘ga qarab suzib o‘tib ketishardi. Qamishlarning orasidan qurbaqalarning qurillashi, o‘rdaklarning g‘aq-g‘aq tovushlari eshitilib turardi” [1.4]. Bu peyzaj tasviri o‘qigan kitobxon o‘zi sezmagan holda bolaligini xotirlaydi.

Peyzaj voqealar kechuvchi ochiq makon bo‘lsa, uy-joy, xona, saroy, qasr – yopiq makon va undagi bezak, ashyolar interyerdir. Interyer tor ma’noda binoning ichki hududi bo‘lib, o‘z ichiga shu hududga oid narsa-jihozlarni ham oladi. Bunday tasvirlarning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o‘ziga xos o‘rni bor. Misol uchun, Pirimqul Qodirovning “Erk” qissasida Sattorning ishxonasini quyidagicha tasvirlaydi: “U o‘zi ishlaydigan xonada naqadar qog‘oz ko‘pligini go‘yo endi payqayotibdi. Olti loyihachi injener bir xonada ishlaydi. Har birining stoli va chizmakashlik asboblari bor. Hamma stollarning ichi-yu usti turli-tuman loyihalar, qo‘llanmalar, iltimosnomalar, ko‘rsatmalar bilan to‘lib ketgan. Ora-oraga qo‘yilgan javonlarda ham, tumbochkalarda ham muqovalangan, buklangan, taxlangan qog‘ozlar polda ham qog‘oz qiyqimlari, chiqindi uchun qo‘yilgan savatchalarda ham g‘ijimlangan qog‘oz. Xonadagi havodan ham chang aralash qog‘oz hidi keladi” [2.77]. Yozuvchi bu tasvirni berar ekan u Sattorning ishxonasi tasvirini o‘quvchining tasavvurida gavdalantirish bo‘lgan va yana ba’zi detallar *(chizmakashlik asboblari, loyihalar, qo‘llanmalar va boshqalar)* orqali yozuvchi Sattorning qaysi ishda ishlashini ham mohirona tasvirlagan.

Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” romanida “Fotimani bir hovliga tushirdilar. Yangi emas, lekin xarob ham emas. Uch xonasi, bir zali, bog‘i bor. Bog‘cha qarovsiz. Hovli to‘y oldidan yig‘ishtirilganiga qaramasdan, ko‘p vaqtlardan beri ayol qo‘li tegmagani bilinib turardi” [4.29]. Bunda interyerni o‘qiboq o‘quvchi yozuvchi nega uyga ayol qo‘li tegmaganligini bir nechta sodda detallar ya’ni bog‘chaning qarovsizligi, hovli faqat to‘y oldi yig‘ishtirilganligi orqali anglab yetadi.

Shukur Xolmirzayevning “Ko‘ngil” hikoyasida hikoya qahramonining Narzulla degan o‘rtog‘i yashaydigan uy tasvirida *pechka, ko‘rpacha, pech yonidagi po‘stak* badiiy ifodada o‘zaro birlashib, yozuvchi ijodiy niyatini anglashda muhim o‘rin tutadi. Bu tasvirda interyerga daxldor har bir buyumning badiiy-funksional o‘rni mavjud. Narzullaning onasi yakka-yu yolg‘iz farzandining o‘rtog‘iga ko‘rpacha to‘shashi o‘zbek ayollariga xos jonkuyarlik, e’tibor-hurmat, mehmondo‘stlik kabi qadimiy va ibratli xislatlarni ko‘rsatyapti. Onaning pechga ko‘mir solishi, birinchidan, voqeaning qish fasliga tegishli ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, Narzulla va uning ovchi do‘stining tog‘da nihoyatda sovqotib kelganligini bildiradi. Xonaning interyeriga oid navbatdagi ashyo – po‘stak bo‘lib, u milliy-maishiy hayot tarzining o‘ziga xosligini ko‘rsatish masadida badiiy tasvir doirasiga olib kiritilgan [7].

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek Ali Qushchini huzuriga chaqirtirganda Mirzo Ulug‘bekning salomxonasi tasvirida *yerdagi sheroziy gilamlar, shiftdagi oltin qandillarning shamlar bilan to‘laligi,*

devorlarda esa ov o‘ljalari va ov anjomlari bilan bezatilganligi aytilgan [3.7]. Bundagi interyer tasvirlarida ham yozuvchining ijodiy niyatini tezda anglab olish mumkin. Xonadagi sheroziy gilam va oltin qandillar salomxonaning shohlarga xos bezatilganligidan darak bersa, ovdagi o‘ljalar va ov anjomlari esa Ulug‘bekning ovga bo‘lgan muhabbati ramzi desak bo‘ladi.

Misollardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy asardagi peyzaj va interyer tasvirlarining mahorat bilan chizilib, o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan makonga munosabatini yuzaga chiqaradi va asar niyatini belgilashda, to‘laqonli xarakterlar hosil etishda muhim ahamiyatga ega. Izzat Sulton aytgandek, badiiy asardagi tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi [18.113]. Bu esa kitobxonning asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Said Ahmad. Jimjitlik (roman) – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2021. – 384 b.
2. Pirimqul Qodirov. Erk – T.: “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, 2021.
3. Odil Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi: roman. – T.: “Nodirabegim nashriyoti”.
4. Ahmad Lutfiy Qozonchi (eng sara asarlar) – T.: “Adabiyot uchqunlari”. 2018 – 448 b.
5. Abdulla Qahhor. Adabiyot muallimi – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018. – 128 b.
6. O‘.Genri. Ishbilarmon kishilar – T: “Yangi asr avlodi”, 2017.
7. Murodov G., Shukurova B. Shukur Xolmirzayev ijodida detalning badiiy-funksional o‘rni. “Экономика и социум”.
8. Abdulla Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: (darslik) – T.:“G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2017. – 307 b.
9. Shodmonova D. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarida aks ettirilishi. Translation forum – 2022.
10. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish:O‘zbekiston Resoublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.:“Iqtisod-moliya”, 2007. – 301 b.
11. Lutfulla, Sindorov. "«HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 475-477.
12. Kurolovich S. L., Olimovich K. T. «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 233-236.
13. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 378-383.
14. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal

of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 384-388.
15. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 12-20.
16. Abdushukurov B. XI—XIVasr turkiy yozma manbalarda qo ‘llanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – T. 1. – №. 1.
17. Синдоров Л. Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 610-613.
18. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

OYBEKNING «NAVOIY» ROMANI TILIDA QO‘LLANILGAN FORS-TOJIKCHA SO‘ZLAR

f.f.f.d., dots. Sindorov Lutfulla Kurolovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybekning «Navoiy» romani tilining o‘zlashma leksik qatlamlari, xususan, fors-tojikcha so‘zlar jamlanib, tematik jihatdan tasniflab chiqilgan hamda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili leksikasi, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, arabcha so‘zlar, fors-tojikcha so‘zlar, tasnif, bilingvizm, so‘z yasash.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir bo‘ladi. Buning natijasida tillarning lug‘at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so‘zlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi bilan hamohang tarzda o‘zbek tili ham o‘zining tarixiy rivojlanishida ko‘plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo‘ldi. Shu bois, o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma’lum qismini o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi [12.209].

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o‘zbek adabiy tili uchun ham so‘z o‘zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid manbalarda qo‘llanilgan o‘zlashmalarning kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o‘zbekchaga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarlidir. Fors tili bu davrda ma’muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so‘zlarining o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashishida vositachi vazifasini bajargan. Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya mo‘g‘ulcha so‘zlar hisobiga kengaygan bo‘lsa, ma’muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy,